

BIOETIK BILIMLAR YORDAMIDA BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA TABIATDAN OQILON FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sharipova Barno Salimovna

Farg‘ona davlat universiteti

Annotation: *In this article, the theoretical-methodological foundations of preparing future biology teachers for the formation of bioethical knowledge in students, and the practical methodical system of preparing for the formation of bioethical knowledge are thoroughly researched. The socio-pedagogical necessity of preparing future biology teachers for the formation of bioethical knowledge in students is analyzed.*

Jahonda global biologik muammolarning kengayib borishi sharoitida biosferaga bioetik mezonlar asosida munosabatda bo‘lish, bioetik bilimlarni shakllantirish dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa biotexnologiyalarning yanada zamonaviylashishi sharoitida bo‘ljak biolog-mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, axloqiy mas’uliyatini oshirish, transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlashga munosabatini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, turli tiriklik shakllariga, hayvonlarga munosabatini ko‘rib chiquvchi bioetika nuqtai nazaridan inson xulq-atvorining axloqiy jihatlariga taalluqli bo‘lgan yangicha yondashuvlar shakllana borishi sharoitida bo‘ljak biologiya o‘qituvchilarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Bo‘ljak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashda OTMlardagi ijtimoiy va ta’limiy muhitning talaba erkinligi va ta’lim olishiga xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. OTMda o‘qish jarayonida psixologik qulaylik, o‘qituvchi va talabaning o‘quv va auditoriyadan tashqari ishlardagi insonparvarlik munosabatlari talabaning kayfiyatiga sezilarli ta’sir qiladi, u OTMdagi insonparvarlik muhitidan qoniqish hosil qiladi, ustozga bo‘lgan ishonchi ortadi, tarbiyaviy ta’sir samaradorligi oshadi. O‘quvchilarga biologiya fani orqali bioetika tushunchalarini o‘rgatish, kelajakda ularning tabiatga, biosferaga nisbatan etik qadriyatlarini shakllantirishda muhim

ahamiyatga ega. Bioetika, hayot va biologik jarayonlar bilan bog'liq etika tamoyillarini o'rgatishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Biologiya o'qituvchilarining bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlash jarayonida kognitiv, shaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan, hissiy-emotsional, faoliyatli-ijodiy komponentlar va diagnostik apparat sifatida pedagogik mahoratni qanday rivojlantirish mumkinligi va tizimni takomillashtirish uchun nimalarga e'tabor qaratish lozimligi tahlil qilingan.

Kognitiv komponent: kognitiv komponent bo'lajak biologiya o'qituvchilarining bilimlarini kengaytirish va ularni bioetika masalalari bilan tanishtirish, bu bilimlar asosida kelgusi pedagogik faoliyatda samarali qo'llay olishga qaratilgan bilimlar, axborotlar va foydali ma'lumotlarni nazarda tutadi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari bioetikaning asosiy konsepsiyalarini, prinsiplarini va muammolarini chuqur anglab olishlari zarur [2]. Bu uchun:

1. Kasbiy tayyorgarlik: bo'lajak o'qituvchilarga mutaxassislik fanlari va boshqa majburiy fanlar asosida bioetik muammolar va bioetik dunyoqarashni shakllantirish, bioetik mas'uliyatni oshirishga doir bilimlarni yetkazish, shu bilan birga, bioetika, bioetik muammolar tahlili bo'yicha maxsus kurslar, ilmiy konferensiyalar va turli ijtimoiy tadbirlar o'tkazish.

2. Mavzularni integratsiya qilish: Biologiyani o'qitishda bioetikaning ahamiyatini ko'rsatib beradigan mavzularni turli fanlarning taqvim rejasiga kiritish, ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa) va tabiiy fanlar (biologiya, zoologiya, botanika, biotexnologiya) fanlarini integrativ o'qitish, ular hamkorlikda bilimlarni shakllantirishga yo'naltirish.

3. Muammoli vazifalar: Bo'lajak biologiya o'qituvchilari bioetikaning asosiy konsepsiyalarini, prinsiplarini va muammolarini chuqur anglab olishlari uchun muammoli vazifalarni kiritish.

Shaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan komponent. Shaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan komponent o'qituvchilarning bioetik muammolar, bioetik dunyoqarashni shakllantirish, bioetik mas'uliyatni oshirishga doir shaxsiy qadriyatlari va axloqiy tamoyillariga asoslanadi. Bu borada:

1. Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish: Bo'lajak o'qituvchilarga bioetik mas'uliyatni oshirishga doir o'z qadriyatlari haqida qayg'urishga yordam berish.

2. Kommunikabellik: Bo'lajak biologiya o'qituvchilari bioetikaning asosiy konsepsiyalarini, prinsiplarini va muammolarini chuqur anglab olishlari uchun muloqot muhitini yaratish, haqiqiy muloqot muhiti muammolarni anglashga yordam beradi.

3. O'z-o'zini baholash: Bo'lajak biologiya o'qituvchilari bioetikaning asosiy konsepsiyalarini, prinsiplarini va muammolarini chuqur anglab olishlari uchun o'z axloqiy qarorlarini tahlil qilishga undash [1].

Hissiy-emotsional component. Hissiy-emotsional komponent bo'lajak o'qituvchilarning bioetik masalalarga nisbatan hissiyotlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi:

1. Empatiya rivojlantirish: Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida bioetik muammolarga nisbatan empatiya hissini kuchaytirish.

2. Ijtimoiy loyihalar o'tkazish: Bioetika bo'yicha ijtimoiy loyihalar o'tkazish orqali talabalar hissiyotlarni ifoda etish imkoniyatini berish.

3. Fikr almashinish to'garaklari: Bioetik masalalar bo'yicha fikr almashinish to'garaklarini tashkil etish.

Faoliyatli-ijodiy komponent. Faoliyatli-ijodiy komponent esa bo'lajak o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi:

1. Amaliy mashg'ulotlar: Bioetik masalalarni hal qilish uchun amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.

2. Ijodkorlikni rag'batlantirish: O'qituvchi va o'quvchilar orasida ijodkorlikni rag'batlantiruvchi loyihalarni tashkil etish.

3. Innovatsion yondoshuvlar: Yangiliklarga ochiq bo'lish va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Pedagogik mahorat diagnostik apparat sifatida ham xizmat qiladi:

1. Baholash tizimlari: O'qituvchilarni baholash tizimlari yordamida ularning bioetik bilim darajasini aniqlash.

2. Refleksiv yondoshuv: O'z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun refleksiv metodlardan foydalanishga rag'batlantirish [3,4].

Biologik bilimlar inson hayotida turli sohalarda qo'llaniladi. Tibbiyot, ekologiya, agronomiya kabi sohalarda biologik bilimlarning yuksak darajada bo'lishi zarur. Bu bilimlar:

1. Sog'liqni saqlash: Tibbiyotda biologik bilimlar kasalliklarni aniqlash, ularni davolash va oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

2. Ekologiya: Ekosistemalarda o'zaro bog'lanishlarni tushunish orqali atrof-muhitni saqlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

3. Agronomiya: O'simlikshunoslik va hayvonchilikda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun zarur.

Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini, odob-axloqi va mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Biologik bilimlarni egallagan insonlar, shuningdek, ularning axloqi ham yuqori darajada bo'lishi kerak:

1. O'z-o'zini anglash: Inson biologik olamdagi o'rnini anglab yetgach, atrofidagi mavjudotlarga nisbatan mas'uliyat hissi paydo bo'ladi.

2. Ijtimoiy mas'uliyat: Biologik tafakkur bilan birga ijtimoiy mas'uliyatni his qilish zarur — bu odamning jamiyatdagi rolini anglashiga yordam beradi.

3. Barqaror rivojlanish: Inson tabiati bilan mos ravishda yashashi kerakligini tushunishi lozim — bu kelajak avlodlarga yaxshi sharoit yaratishda muhimdir.

Biomass'uliyat - bu odamlarning tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik hissi bilan bog'liq mas'uliyatidir. Bu tushuncha quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Resurslardan foydalanish: Tabiat resurslarini oqilona ishlatish, ularni ifloslantirmaslik.

2. Ekotizimlarga hurmat: Hayvonlar va o'simliklarning bioxilma-xilligini saqlab qolishga intilish.

3. Kelajak uchun javobgarlik: Hozirgi avlodning ehtiyoji bilan birga kelajak avlodlarning manfaatlarini ham hisobga olish zarur.

Zamonaviy davrda biologik bilimlar va ahloqiy tarbiya insoniyat hayotida muhim o'rin tutmoqda. Biologiya fani, odamlar, hayvonlar va o'simliklar haqida chuqur bilim beribgina qolmay, balki ularning o'zaro munosabatlarini tushunishga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pinker S. Moral imperative for bioethics // Boston globe. – 2015. – August 1. – Mode of access: <http://www.bostonglobe.com/opinion/2015/07/31/the-moral-imperative-for-bioethics/JmEkoyzITAu9oQV76JrK9N/story.html>

2. Potter, V. R. Bioética Global: Construindo a partir do Legado de Leopold. Tradução de Cecília Camargo Bartalotti. São Paulo: Loyola, 2018a.

3. Reindtorff J.D., Kemp P. (eds.). Basic ethical principles in European bioethics and biolaw. Vol. I: Autonomy, dignity, integrity and vulnerability. 428 p.; Vol.II: Partners research. Barselona 2000.

4. Левчук Карина Анатольевна Исторические этапы и формы взаимодействия медицины и православия в России // Journal of Siberian Medical Sciences. 2009. №2.

